



XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA KADRLAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Abduvoxidova Mohinur Akmalovna

Samarqand davlat universiteti

ORCID: 0009-0004-1137-8460

mohinur_1998@icloud.com

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot xizmat ko'rsatish sohasida kadrlar raqobatbardoshligini oshirish mexanizmini takomillashtirishga, soha xodimlarining malaka darajasini, innovatsion yondashuvlarini va professional rivojlanishini tahlil qilib, ularni raqobatbardosh qilish uchun samarali strategiyalarni aniqlashga qaratilgan. Tadqiqotda soha mutaxassislarining intervyulari, so'rovnomalalar va mavjud adabiyotlar tahlili orqali kadrlar salohiyatini oshirish omillari – ta'lim, trening, motivatsiya va innovatsion boshqaruv tizimlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: xizmatlar sohasi, malaka, bilim, ko'nikma, mahorat, mexanizm, innovatsiya, o'qitish, mehnat, resurs.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМА ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПЕРСОНАЛА В СФЕРЕ УСЛУГ

Абдувохидова Мохинур Акмаловна

Самаркандский государственный университет

Аннотация. Исследование направлено на совершенствование механизма повышения конкурентоспособности персонала в сфере услуг, анализ уровня квалификации, инновационных подходов и профессионального развития работников отрасли и выявление эффективных стратегий повышения их конкурентоспособности. В исследовании изучались факторы наращивания кадрового потенциала – образование, обучение, мотивация и инновационные системы управления-посредством интервью с профессионалами отрасли, анкетирования и анализа доступной литературы.

Ключевые слова: сфера услуг, квалификация, знания, умения, навыки, механизм, инновации, обучение, труд, ресурс.

IMPROVING THE MECHANISM FOR ENHANCING THE COMPETITIVENESS OF PERSONNEL IN THE FIELD OF SERVICE PROVISION

Abduvoxidova Mohinur Akmalovna

Samarkand State University

Abstract. This research is aimed at improving the mechanism for improving the competitiveness of personnel in the service sector, analyzing the skill level, innovative approaches and professional development of employees of the industry and identifying effective strategies for making them competitive. The study explores factors of human resources capacity building – education, training, motivation and innovative management systems through interviews of industry professionals, surveys and analysis of available literature.

Keywords: service area, qualification, knowledge, skill, mastership, mechanism, innovation, training, labor, resource.

Kirish.

O'zbekistonda kadrlar muammosi va salohiyati iqtisodiy islohotlarning asosiy negizini tashkil qiladi. Ular iqtisodiyotning barcha sohalarida asosiy omil sifatida ishtirok etadi, ya'ni ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida yangi texnika va texnologiyalar kiritilgan bo'lsa-yu, uni amalga oshiradigan malakali mutaxassislar bo'lmasa, iqtisodiy samaradorlikni oshirib bo'lmaydi.

Xizmat ko'rsatish sohasida aylanma mablag'larning tez aylanishi, ushbu sohada tadbirkorlikni rivojlanishi ishlab chiqarish sohasiga qaraganda oson kechishi, doimo xizmatlarga ehtiyojning paydo bo'lishi kabi xususiyatlari sohani milliy iqtisodiyotda jadal rivojlanishiga imkon beradi. Modomiki, xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiyotda moslashuvchanligi yuqori va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida katta rol o'ynar ekan, ushbu sohada band xodimlar zimmasiga katta mas'uliyat yuklatiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2024-yil 29-yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomasida 2025-yil va keyingi yillarda iqtisodiyot sohasida amalga oshirish zarur bo'lgan dasturiy va maqsadli vazifalar belgilab berildi. Murojaatnomadagi birinchi qayd etilgan vazifalardan biri, "2030-yilda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va inflyatsiyani jilovlash – iqtisodiy islohotlar jarayonidagi bosh vazifamizdir", deb ko'rsatgani bo'ldi. Ushbu vazifani bajarish uchun xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga to'g'ri keladi. Mamlakat yalpi ichki mahsulot tarkibida xizmatlarning ulushi salmoqli darajaga ega.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib O'zbekistonda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, voyaga yetayotgan mehnat resurslarini chuqur bilimga, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirishda o'ta muhim ahamiyatni kasb etadi. Shu bilan birga xizmat ko'rsatish sohasida bu borada kadrlarni tayyorlash bo'yicha quyidagi muammolar mavjudligini keltirib o'tish lozim:

- birinchisi, oliy ta'lim muassasalarida kadrlarni tayyorlashda o'qitishning innovatsion ta'lim shakllaridan (amaliy o'yinlar, muammoli o'qitish, interfaol darslar, blended learning (aralash o'qitish), mahorat darslari, evristik metodlar) foydalanilayotgani yo'q. Vaholanki, xorij mamlakatlarida bitiruvchilar butun o'quv yili davomida jami bo'lib 1200-1500 dan ortiq murakkab vaziyatli masalalarni ("Case - study") mustaqil ravishda bajaradilar;

- ikkinchisi, xizmat ko'rsatish sohasida jumladan sog'liqni saqlash, turizm, moliya va bank, shuningdek, maishiy texnikalarga xizmat ko'rsatadigan professional mutaxassislarni tayyorlashda hududlardagi mehnat bozori holati o'rganilmayapti. Shu sababli respublikamizning ba'zi hududlarida, jumladan Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm viloyatlarining chekka tumanlarida xizmat ko'rsatish sohasida kadrlar tanqisligi uchrab turibdi;

- uchinchisi, xizmat ko'rsatish sohasidagi xodimlarni ishga joylashtirish, lavozimlarga tayinlashda malakasining pastligi holatlar mavjud. Mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishida ushbu muammolar bartaraf etilmas ekan, xizmat ko'rsatish sohasida ijobiy siljishlar ro'y bermaydi

O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish asosida aholi bandligini oshirish, iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarida bandlikdan olinadigan daromadlarni aholi daromadlarining asosiy manbaiga hamda uning turmush darajasini shakllantirishning muhim omiliga aylantirish imkoniyatlarini ishlab chiqishni talab etadi.

Ushbu muammoning dolzarbligi va o'ta muhimligi mamlakat taraqqiyotining hozirgi bosqichida ishga layoqatli aholini ish bilan ta'minlash zaruriyati, mehnat bozorida talab va taklif o'rtasida nomutanosiblikning saqlanib turganligi bilan belgilanadi. Mehnatga layoqatli har bir kishining ijtimoiy ishlab chiqarishda, turlituman noz-ne'matlar yaratishda faol ishtirok etishini to'la ta'minlay olgan, aholi faolligini oshirishning samarali mexanizmlarini yaratib, ulardan iqtisodiy yuksalishning amaliy vazifalarini hal etishda unumli foydalana olgan jamiyatgina taraqqiyotga yuz tutadi, o'z xalqining farovon hayot kechirishiga erishadi.

Adabiyotlar sharhi.

Iqtisodchi olimlar Rindermann, Seylar va Tompsonlar (2009) o'zlarining tadqiqotlarida ijtimoiy taraqqiyotning omillariga e'tibor qaratib, unda aql va bilimga asoslangan omilni alohida tadqiq etishgan. Ularning xulosalariga ko'ra xalqning (IQ-intelligence quotient - intellekt darajasi) intellekt darajasi koeffitsienti bir punktga oshishi YaIMning kishi boshiga 229 AQSh dollariga oshishini asoslab bergan.

Frey (2017) ning fikricha "mehnat bozorining zamonaviy sharoitlari shuni ko'rsatadiki, xizmatlar sohasidagi raqobatbardoshlik kadrlarning moslashuvchanligi va ularning texnologik yangiliklarga tezkor javob bera olish qobiliyatiga bog'liqdir.

Filippin va Singapur kabi davlatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, xizmatlar eksportining jadal rivojlanishi uchun kadrlarning xalqaro standartlarga mos tayyorlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, texnologiya va mijozlarga xizmat ko'rsatish jarayonlarining raqamlashtirilishi xizmatlar eksportining o'sishiga olib kelmoqda. Singapur va Filippin kabi davlatlar xizmatlar eksporti hisobiga mehnat bozorida yuqori talabga ega bo'lib, bu davlatlarning raqobatbardoshligini oshirmoqda (Gereffi, Fernandez-Stark, 2016).

Vasilenko (2020) "xizmat ko'rsatish sohasining nazariy asoslarini, uni rivojlantirishning amaliy muammolari va tendensiyalarini tadqiq etgan. Shuningdek, xizmat ko'rsatish sohasini resurslar bilan ta'minlash va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqqan".

Romanov (2006) xizmat ko'rsatish faoliyatini xizmatlar ko'rsatish yo'li bilan insonlarning ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan faoliyat deb ta'rif beradi. Ammo shuni ta'kidlashimiz kerakki, xizmat ko'rsatish faoliyatini amalga oshirish jarayonida nafaqat aniq bir insonning ehtiyojlari qondiriladi, balki tashkilotlar hamda jamiyat ehtiyojlari ham qondiriladi.

Abdukarimovning fikricha, «xizmat ko'rsatish faoliyati deganda yakka tartibdagi xizmatlarni ko'rsatish orqali insonlar talabini qondirishga yo'naltirilgan faoliyat turini tushunish lozim. Ushbu turdagi faoliyat bilan turli xildagi tashkilotlar shug'ullanishadilar. Ular jumlasiga yakka tartibdagi tadbirkorlar va turli mulk shakliga ega bo'lgan xizmat ko'rsatish korxonalari kiradi. Ular mehnatining natijasi bo'lib xizmat hisoblanadi (Vaxabov, 2014).

Karimov (2022) zamonaviy xizmatlar sohasi kadrlarining raqobatbardoshligini oshirish uchun ta'lim tizimi xalqaro standartlarga mos ravishda rivojlantirilishi lozim. Ayniqsa, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirishda innovatsion texnologiyalar va kasbiy malakani rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xojiyev (2021) hozirgi kunda O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biriga aylanib bormoqda. Shu bois xizmat ko'rsatish sifati va kadrlarning malakasini oshirish, ularning raqobatbardoshligini ta'minlash dolzarb masaladir deb keltirgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonida xizmat ko'rsatish sohasida kadrlar raqobatbardoshligini oshirish mexanizmlarini o'rganish uchun turli metodlardan foydalanildi. Birinchi navbatda, ilmiy manbalar va xalqaro tajribalarni o'rganish orqali xizmatlar sohasining iqtisodiyotdagi o'rni va rivojlanish tendensiyalari tahlil qilindi. Bu jarayonda dunyoning yetakchi mamlakatlari, xususan, Singapur va Filippinning xizmatlar eksportini rivojlantirish borasidagi muvaffaqiyatli tajribalari o'rganildi va ular O'zbekiston sharoiti bilan solishtirildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Bugungi globallashtirilgan dunyoda xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiy o'sishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu sohaning rivojlanishi bevosita malakali va raqobatbardosh kadrlarga bog'liq. Agar xizmat ko'rsatish sifati yuqori bo'lsa, mijozlar soni ortadi, bu esa sohaning iqtisodiyotdagi ulushini oshirishga xizmat qiladi. Ammo, xizmat ko'rsatish sohasi mutaxassislaridan zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish talab etiladi. Shu sababli,

kadrlar raqobatbardoshligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda.


Dunyo miqyosida xizmat ko'rsatish sohasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Masalan, AQShda iqtisodiyotning asosiy qismi aynan xizmatlar sohasiga to'g'ri keladi. Yevropada ham shunga o'xshash holat kuzatiladi, bu esa sohaning jahon bozoridagi o'rnini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Osiyo davlatlarida, jumladan, Singapur va Filippinda ham xizmatlar sohasi jadal rivojlanmoqda. O'zbekistonda esa so'nggi yillarda xizmat ko'rsatish sohasining ulushi sezilarli darajada oshdi, ammo hali ham oldinda katta ishlar turibdi.

Statistik ma'lumotlarga qaraganda, rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotning 70% dan ortig'i xizmatlar sohasiga to'g'ri keladi. Masalan, AQSh va Yevropa Ittifoqida bu ko'rsatkich yuqoriligini ko'rish mumkin. Osiyo mamlakatlarida esa xizmatlar sektorining ulushi tez o'sib bormoqda. O'zbekistonda ham xizmat ko'rsatish sohasi so'nggi yillarda tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda, va bugungi kunda iqtisodiyotning qariyb 35% ini tashkil etmoqda.

Xizmat ko'rsatish tizimiga qarashli bo'lgan sub'ektlar jumlasiga tadbirkorlar yoki xizmat ko'rsatish tashkilotlarining jamoalari kiradi. Yuqorida qayt qilingan tashkilotlar quyidagi shakllarda bo'lishi mumkin:

- ixtisoslashtirilgan firmalar - masalan sayyohlik, mehmonxona, davolash;
- ixtisoslashtirilgan korxonalar, savdo, transport, ta'mirlash va boshqalar;
- byuro, idoralar - yuridik, axborot, reklama, turar joy.
- muassasalar - qonunni qo'riqlash va madaniyat muassasalari bo'lib hisoblanadigan militsiya bo'limlari, teatrlar, muzeylar, kutubxonalar;
- tashkilotlar - bank, sug'urta, qo'riqlash va hokazolar.
- xizmat ko'rsatish sohasidagi biznes to'liq tijorat prinsplari asosida amalga oshiriladi.

Bu yerda shuni ta'kidlash joizki, ko'pchilik davlat muassasalari aholiga xizmat ko'rsatishni aralash asosida amalga oshiradi, ya'ni qisman tijorat asosida, qisman ijtimoiy ne'matlarni beg'araz qayta taqsimlash mexanizmi bazasida. Umumiy holatda xizmat ko'rsatish faoliyati aholining keng ma'nodagi ijtimoiy va yakka tartibdagi ehtiyojlarini qodirish imkoniyatini beradi, va shu bilan bir qatorda hozirgi turdagi iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarni samarali rivojlantiradi. O'zbekiston xizmat ko'rsatish sohasida kadrlar raqobatbardoshligini oshirishda quyidagi mexanizm asosida amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi deb hisoblaymiz.



1-rasm. O'zbekiston xizmat ko'rsatish sohasida kadrlar raqobatbardoshligini oshirish mexanizmni

Manba: muallif tomonidan ilmiy izlanishlar natijasida shakllantirildi.

Malakali kadrlarni yetishtirishning eng muhim jihati ularning doimiy o'qitilishi va rivojlanishidir. Masalan, Singapurda xizmat ko'rsatish sohasida ishlovchilar muntazam ravishda o'qitiladi, bu ularning zamonaviy texnologiyalar bilan ishlashiga imkon yaratadi. Singapur esa malaka oshirish tizimiga 2023-yilda \$500 million AQSh dollari miqdorida investitsiya kiritgan.

Filippinda esa xizmat eksportini rivojlantirish uchun malaka oshirish dasturlariga katta e'tibor qaratiladi. Filippinda xizmat ko'rsatish sohasida ishlaydigan xodimlar uchun maxsus trening markazlari tashkil etilgan, bu ularning xalqaro mehnat bozorida talabgir bo'lishini ta'minlaydi. O'zbekistonda ham xizmat ko'rsatish sohasidagi mutaxassislar uchun turli o'quv dasturlari yo'lga qo'yilgan, biroq bu jarayonni yanada takomillashtirish lozim.

Zamonaviy xizmat ko'rsatish sohasi innovatsiyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. So'nggi yillarda AQSh va Yevropada sun'iy intellekt texnologiyalari xizmatlar sifatini oshirishga yordam bermoqda. O'zbekistonda ham raqamli xizmatlar ko'lamini kengaytib, onlayn xizmatlardan foydalanuvchilar soni ortib bormoqda. 2023-yilda mamlakatda onlayn xizmatlardan foydalanish 40% ga oshgani bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Zamonaviy xizmat ko'rsatish sohasi yuqori malakali kadrlarni talab qiladi. Mamlakatlar bu borada turli dasturlar ishlab chiqmoqda. O'zbekistonda ham xizmat ko'rsatish sohasida kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2023-yilda mamlakat bo'ylab xizmat ko'rsatish sohasi xodimlari uchun 15 mingdan ortiq o'quv kurslari tashkil etilgan, ammo xalqaro talablar darajasiga yetkazish uchun yana qo'shimcha dasturlar ishlab chiqish zarur.

Bugungi kunda dunyo bo'ylab xizmatlar eksporti ortib borayotgan bo'lsa, kadrlarning global mehnat bozoriga moslashuvi ham shunchalik muhim ahamiyat kasb etmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda xizmat ko'rsatish sohasi mutaxassislariga talab yuqori bo'lib, ularning ko'nikmalari xalqaro standartlarga mos kelishi kerak. Masalan, hozirda mijozlarga yo'naltirilgan xizmatlar rivojlanmoqda, bu esa xodimlardan kommunikatsiya va mijozlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha yuqori malaka talab qiladi.

Zamonaviy xizmat ko'rsatish sohasi innovatsiyalarsiz rivojlana olmaydi. Masalan, AQSh va Yevropada xizmat ko'rsatish jarayonlarining 60% dan ortig'i raqamlashtirilgan. Bu esa mijozlar bilan ishlash samaradorligini oshiradi va xarajatlarni kamaytiradi.

O'zbekistonda ham raqamli xizmatlarning jadal rivojlanishi kuzatilmoqda. 2023-yilda onlayn xizmatlardan foydalanuvchilar soni 40% ga oshgan. Bank xizmatlari, transport va turizm sohalarida raqamlashtirish jarayonlari ancha rivojlangan bo'lsa-da, hali ham xizmat ko'rsatishning ko'plab segmentlarida innovatsion texnologiyalarni joriy etish talab etiladi.

Dunyoda xizmatlar eksporti jadal o'sib borayotgan bir paytda, mehnat bozori ham shunga moslashishi lozim. Masalan, Filippinda xizmat ko'rsatish sohasi mutaxassislari xorijiy bozorlarda yuqori talabga ega bo'lib, har yili 1 milliondan ortiq kadrlar chet elda ishga joylashmoqda. Singapur esa o'z mutaxassislari xalqaro bozorga yo'naltirish orqali raqobatbardoshligini oshirib kelmoqda.

O'zbekistonda esa xizmat ko'rsatish sohasi kadrlarining xalqaro bozorga chiqishi hali yetarli darajada rivojlanmagan. Biroq, oxirgi yillarda IT va turizm sohasida xalqaro sertifikat olish uchun talabgorlar soni 30% ga oshgani bu boradagi ijobiy o'zgarishlardan dalolat beradi.

Xizmat ko'rsatish sohasidagi o'sish sur'atlari rivojlangan davlatlarda yuqori ko'rsatkichlarni aks ettiradi va YaIM tarkibida ham salmoqli o'rinlarni egallaydi. Shuning uchun mamlakat iqtisodiyotini yanada rivojlantirish maqsadida xizmat ko'rsatish sohasin takomillashtirish va sohada malakali kadrlar yetishmovchiligini oldini olish lozim. Masalan, AQSH iqtisodiyotning 77% ini tashkil etuvchi xizmatlar sohasi mehnat bozorining asosiy qismini band qilgan, Yevropa Ittifoqida xizmatlar sohasi YAIMning 73% ini tashkil qiladi, Singapur xizmatlar eksportiga katta e'tibor berib, mamlakat iqtisodiyotining 71% ini shu soha egallaydi, Filippin xizmatlar sohasi bandlikning 65% ini ta'minlaydi, O'zbekistonda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning 35% ini tashkil etsa, sohadagi bandlik 40% ga yaqinlashmoqda. Jahon

statistik natijalaridan mamlakatimizning ko'rsatkichlari biroz farq qilsada ammo sohani rivojlantirish uchun mamlakatimizda yetarlicha shart-sharoitlar mujassam.

Rivojlangan mamlakatlarda xizmatlar sohasida band bo'lgan aholining oliy ma'lumotlilar ulushi mamlakat va sohalarga qarab farqlanadi. Umuman olganda, xizmatlar sohasi yuqori malakali kadrlarni talab qiladi, bu esa oliy ma'lumotli xodimlarning ushbu sektorda yuqori ulushiga olib keladi. Masalan, AQShda xizmatlar sohasida band bo'lganlarning taxminan 60% oliy ma'lumotga ega. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida bu ko'rsatkich 55% atrofida.

Ayrim sohalarda, masalan, moliya va texnologiya xizmatlarida, oliy ma'lumotlilar ulushi yanada yuqori bo'lib, 70-80% ni tashkil etadi. Bu raqamlar xizmatlar sohasida oliy ma'lumotli kadrlarning muhimligini ko'rsatadi (Mo'minov, 2018). O'zbekistonda sohalar kesimida oliy ma'lumotlilar ulushini tahlil qiladigan bo'lsak, 2023-yilda 2017-yilga nisbatan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohalarida oliy ma'lumotlilar ulushi kamayganini kuzatish mumkin (1-jadval).

1-jadval

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha oliy ma'lumotli xodimlar soni (kishi)

Klassifikator	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	51867	48699	44024	44779	64950	51428	49636
Qurilish	32656	36962	45987	55509	71796	75321	75186
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	17790	18004	18934	21439	17860	15933	16218
Ishlab chiqarish sanoati	91451	97966	106053	110246	118636	123783	126872
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	56007	58838	60734	61200	71413	72393	76392
Boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish	8771	9579	12755	12396	14965	16246	16442
Davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta'minot	86294	94928	99786	98807	104501	116582	121043
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	11993	13156	14435	14470	15507	16596	17488
Boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish	16821	18175	18342	16503	16184	17046	19484
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	18392	16987	18341	20129	21496	20635	19065
Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	6044	6480	6078	6167	6141	6042	5936
Axborot va aloqa	20341	21539	23150	24325	28283	32506	37793
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	42859	43276	44794	44340	47909	47438	52257
Tashish va saqlash	32808	32983	35257	35031	35424	38287	41064
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	9527	10925	14518	13446	14561	15475	17564
Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash	56055	59868	71114	77528	91288	101090	111309
Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar	10312	9892	10677	10749	11326	12097	12461
Ta'lim	574207	595425	604012	626797	683349	715940	753780
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	93668	98676	100125	102589	121346	130736	138724

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasi eng yirik oliy ma'lumotlilar bandlik ko'rsatkichiga ega soha bo'lib turibti, 2017-yilda 93 668, 2023-yilda esa 138 724 kishi ushbu sohada band bo'lgan. O'sish 48% ni tashkil qilgan, bu aholining sog'liqni saqlash xizmatlariga talabining ortganini ko'rsatadi.

Ta'lim sektori doimiy o'sishni tashkil etmoqda, 2017-yilda 574 207 nafar kishi band bo'lgan bo'lsa, 2023-yilda bu raqam 753 780 ga yetdi. 6 yil ichida o'sish 31% ni tashkil etdi. Bu ta'lim tizimidagi kengayishlar va yangi o'quv muassasalarining ochilishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Xizmat ko'rsatish sohasida mahsulotlar belgilanishi birligi nuqtai nazaridan xizmat sohasi mahsuloti - qiyin va qarama-qarshi tushinchadir. Iste'mol fondini ko'paytirishga yo'naltirilgan xizmatlar ijtimoiy soha mahsuloti sifatida ko'rilishi mumkin.

Iste'mol qilinadigan resurslar xilma-xilligi nuqtai nazaridan ushbu o'xshashlik «nomoddiy mahsulotlar» iste'mol qilinadigan resurslardagi o'xshashlik xarajatlarning o'z strukturasida ham namoyon bo'ladi, ular bir biridan keskin farq qiladi.

Kadrlar tarkibining o'ziga xos belgisiga ko'ra xizmat ko'rsatish sohasida bu birinchi navbatda shunda namoyon bo'ladiki, undagi asosiy ishlovchilar o'rta va oliy ma'lumotli mutaxassislar hisoblanadi.

Xizmat ko'rsatish faoliyati iqtisodiy aktiv faoliyatning bir turi bo'lib, bozor munosabatlari sharoitida turli xil xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanadi. Ushbu faoliyat xizmat ko'rsatishning ixtisoslashtirilgan strukturalari orqali amalga oshiriladi, ular o'z navbatida ushbu tizimning sub'ektlari hisoblanadi. Mavjud sub'ektlar ijtimoiy ehtiyojlarning miqyosi va mazmunini baholash orqali barcha xoxlovchilarga o'z xizmatlarini taklif etadi va ularni qondirishga harakat qiladi.

Oliy ta'lim muassasalari o'rtasida oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlash borasida raqobatni ta'minlash. Bunda oliy ta'lim muassasalar sonini yanada oshirish maqsadga muvofiq deb bilamiz (Mardonov, 2020).

Oliy ta'lim muassasalarida talabalar orasida namunali xulqi va a'lo o'qishi bilan ajralib turgan, iqtidorli talabalarga oliy o'quv yurtining maxsus tavsiyanomasini ishlab chiqish va shu orqali ishga joylashtirilsa, bitiruvchilarni ishga qabul qilish jarayonida shaffoflik ta'minlanadi. Tavsiyanomalar oliy o'quv yurtining maxsus kafedralarning professor-o'qituvchilari tomonidan tayyorlanishi lozim.

Malakali mutaxassislarni nafaqat oliy ma'lumotli balki o'rta maxsus ma'lumotli kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash imkoniyatlaridan ham foydalanish lozim. Hozirgi kunda oliy ma'lumotli kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash masalalari talab darajasida tashkil etilgan. Biroq, o'rta maxsus ma'lumotli kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash borasida ishlarni amalga oshirish imkoniyatlari chegaralangan.

Ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlaydigan biron-bir bilim yurtlari yo'q. Vaholanki, ular oliy ma'lumotli kadrlar bilan tengmateng faoliyat yuritib kelmoqda. Bizning nazarimizda, bu muammoni hal etish yo'llaridan biri o'qitishning innovatsion ta'lim usullaridan, rivojlangan mamlakatlarning bu boradagi ilg'or tajribalaridan foydalanish lozim.

Xizmat ko'rsatish sohasi mamlakat taraqqiyotini ta'minlaydigan asosiy sohalardan biridir. Uni oliy ma'lumotli yetuk mutaxassislar, o'rta maxsus ma'lumotli kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlashga ega bo'lgan kadrlarni ish faoliyatidagi monitoringini yuritish sohani rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Mehnat resurslari ishlab chiqarish omillari ichida noyob resurs hisoblanadi. Mehnat resursini o'qimishli, madaniyatli qilish uchun kamida 20 yil umr sarflanadi. Shunday ekan ularni mehnatini munosib rag'batlantirish va sohalarda mehnat natijalariga qarab lavozimlarini oshirilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa va takliflar.

Shunday qilib, xizmat ko'rsatish sohasidagi kadrlar raqobatbardoshligini oshirish mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga va global mehnat bozoriga integratsiyalashuviga yordam beradi. Bu esa xizmatlar sohasining yanada rivojlanishiga va xalqaro darajada tan olinishi uchun mustahkam asos yaratadi. Olib borilgan tahlillar natijasida quyidagicha xulosa va takliflarni keltirib o'tish mumkin:

- Malaka oshirish dasturlarini kengaytirish oqrali xizmat ko'rsatish sohasidagi mutaxassislar uchun doimiy ta'lim tizimini yo'lga qo'yish.
- Innovatsion texnologiyalardan foydalanish orqali xizmat ko'rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish va sun'iy intellektdan foydalanish imkoniyatlarini oshirish.
- Xalqaro tajribani tatbiq etish yordamida Singapur va Filippin kabi mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, xizmatlar eksportiga yo'naltirilgan dasturlar ishlab chiqish.
- Kasbiy ta'limni kuchaytirish yo'li orqali yosh mutaxassislarni o'qitish va ularning xizmatlar sohasidagi malakasini oshirish uchun maxsus o'quv dasturlarini ishlab chiqish.

Adabiyotlar /Lumepamypa/Reference:

- Abdurkarimov F. (2023) *Xizmat ko'rsatish korxonalarining samaradorlik ko'rsatkichlari va ularni hisoblash yo'llari* //Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – T. 1. – №. 6. – S. 121-126.
- Frey, C. B., & Osborne, M. A. (2017). *The Future of Employment: How Susceptible Are Jobs to Computerisation? Technological Forecasting & Social Change*.
- Gereffi, G., & Fernandez-Stark, K. (2016). *Global Value Chain Analysis: A Primer*. Duke University Center on Globalization, Governance & Competitiveness.
- Karimov A. Sh., (2022). *O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasini modernizatsiyalash tamoyillari*. Toshkent: Iqtisodiyot va ta'lim nashriyoti.
- Mardonov B. B., Erdonov M. E. (2020). *Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlanishida kadrlar masalasi* // *Ekonomika i finansy (Uzbekistan)*. №1 (133). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/hizmat-k-rsatish-so-asini-rivozhlanishida-kadrlar-masalasi>
- Mo'minov X.I. (2018) "Mehnat iqtisodiyoti» o'quv qo'llanma Buxoro, 274-b.
- Murojaatnoma (2024) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 29-yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomasi "Parlament va hukumat faoliyatida yangicha ishlash, xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish davri" Qonunchilik palatasi majlisidagi nutqi*.
- Rinderman H., Sailer M., Thompson J. (2009). *The impact of smart fractions, cognitive ability of politicians and average competence of peoples on social development*// *Talent Development & Excellence*. Vol.1.No.1.pp.3-25.
- Stat.uz. (2025). siis. [online] Available at: <https://siat.stat.uz/reports-filed/3827/meta-data>.
- Vaxabov A.V. (2014) *O'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida iqtisodiyotni modernizatsiyalash strategiyasi* // *Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash strategiyasi va uni o'rta muddatlarda amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari*. -T.: B. 35.
- Xojiyev D. T. (2021). *Iqtisodiyot tarmoqlarida xizmat ko'rsatish tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari*. Toshkent: Fan va texnologiya.
- Василенко, Наталья Валерьевна (2020). "Экономика сферы услуг." 439-439.
- Романов Ж.А. (2006) *Сервисная деятельность* М: Дашкови К. С –911.